



TEACHER-DISCIPLE RELATIONS 1IN CENTRAL ASIAN SUFI SCHOOLS

Jasur Nasirdinovich Ulugov

Lecturer of Samarkand Campus of the University of Economics and Pedagogy

ulugov_jasur@mail.ru

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Dhikr, motivation, moral immunity, classical education, social value, conversation method, devotion, divine love, arif billah, Turkish ethics, external, internal.

Received: 26.01.26

Accepted: 27.01.26

Published: 28.01.26

Abstract: This article examines the teacher-student relationship based on Sufi traditions. Specifically, it provides a profound philosophical analysis of the educational heritage of the Yassavi, Kubrova, and Naqshbandi schools, which developed in Central Asia. In Sufism, the teacher-student relationship is interpreted as a complex process based not only on the transmission of knowledge but also on spiritual and spiritual education, moral improvement, and inner purification.

MARKAZIY OSIYO TASAVVUF MAKTABLARIDA USTOZ VA SHOGIRD MUNOSABATLARI

Jasur Nasirdinovich Ulug'ov

Iqtisodiyot va pedagogika Universiteti Samarqand kampusi

o'qituvchisi

ulugov_jasur@mail.ru

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Zikr, motivatsiya, axloqiy immunitet, mumtoz ta'lim, ijtimoiy qadriyat, suhbat usuli, sadoqat, ilohiy ishq, orifi billoh, turkiy axloq, zohiriy, botiniy.

Annotatsiya: Maqolada ustoz-shogird munosabatlari tasavvuf an'analari asosida yoritilgan. Xususan, Markaziy Osiyo hududida shakllangan yassaviylik, kubroviylik va naqshbandiylik tariqatlari doirasidagi ta'limiy meros chuqur falsafiy tahlil qilinadi. Tasavvufda ustoz va shogird o'rtasidagi aloqalar nafaqat bilim berish, balki ma'naviy-ruhiy tarbiya, axloqiy kamolot va ichki poklanishga asoslangan murakkab jarayon sifatida talqin etiladi.

ОТНОШЕНИЯ УЧИТЕЛЯ И УЧЕНИКА В СУФИЙСКИХ ШКОЛАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Жасур Насирдинович Улугов

Преподаватель

Самаркандский кампус Университета экономики и педагогики

ulugov_jasur@mail.ru

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Зикр, мотивация, моральный иммунитет, классическое образование, социальная ценность, метод беседы, преданность, божественная любовь, ариф биллях, турецкая этика, внешнее, внутреннее.	Аннотация: В статье рассматриваются взаимоотношения учителя и ученика, основанные на традициях суфизма. В частности, дан глубокий философский анализ образовательного наследия в рамках школ Яссави, Куброва и Накшбандия, сформировавшихся в Центральной Азии. В суфизме взаимоотношения учителя и ученика трактуются как сложный процесс, основанный не только на передаче знаний, но и на духовном и духовном воспитании, нравственном совершенствовании и внутреннем очищении.
--	--

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida zamonaviy ta'lim standartlarini joriy qilish bilan birga yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda jonbozlik ko'rsatish, ustoz-murabbiy va o'qituvchilarni rag'batlantirish va yoshlarning ta'lim tarbiyasiga ma'sulligini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Oxirgi yillarda ta'lim-tarbiya sohasida ta'lim tizimiga xos yangi standartlar, keng ko'lamli ma'rifiy, mafkuraviy va tarbiyaviy maqsadli ishlar amalga oshirilgan bo'lib, barkamol avlodning kamoloti va ma'naviy-axloqiy yuksalishi uchun zamin yaratilmoqda. Bu jarayon ta'lim bilan tarbiya uyg'unligi va uning mazmun-mohiyatining ta'sirchan kuchi–bugungi yoshlar hayotda davr talabiga mos har tomonlama yetuk intellektual shaxs sifatida o'zini namoyon etmoqda.

Ilm olish, hunar o'rganish mashaqqatli jarayondir. Uni bir muncha qulaylashtirish pedagogikaning dolzarb masalasi bo'lib kelgan. Bu esa har xil metodlar va uni o'rganuvchi metodikani shakllantirdi. Uslub esa zamon talablariga moslashib, mukammallashib boraverdi. Kreativ va ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim metodlari jarayonida ta'lim qutblari-ustoz va shogird munosabatlari yangi shaklga kirib boraveradi. Ular o'rtasidagi munosabatlarda muloqot shartlari davr taqazosi bilan o'zgarishni boshlaydi. Masalan, kreativ fikrlash (Critical thinking) ta'lim oluvchi va beruvchi o'rtasida mutadillikni talab qiladi. Yoki onlayn ta'limda ustoz va shogird munosabatlari onlayn resurslar orqali yo'lga qo'yilishi, bevosita muloqotning yo'qligi

an'anaviy metodlarni o'zgartirishni kun tartibiga qo'yadi. Pedagogik qobiliyat va mahorat, auditoriyaga moslashuvchanlik an'anaviy ta'lim qobig'ini yorib chiqishni talab qiladi. Bunday sharoitda milliy ta'limni shakllantirishda tarixiy sub'ektlarni qayta uyg'otish munosib yechim sifatida ko'riladi, ikki tomonni ham qoniqtiradigan ma'naviy munosabatlar ehtiyoji tug'iladi. Bunday avlodlar va ajdodlar o'rtasidagi ko'prikn yaratish boy tarixiy asosni talab qiladi. Tarixiy ildizlari baquvvat bo'lgan xalq uchun buning mashaqqatlari birmuncha ozdir.

Ustoz va shogird munosabatlarida o'zbek mumtoz ta'lim tizimi tarbiya bilan uyg'unlikda olib borilganligi ahamiyatlidir. Ayniqsa tasavvufda aql, tana va ruh tarbiyasiga birdek qaralishi zamonaviy milliy ta'lim metodikasining shakllanishida juda ko'p natijalar ko'rsatishi mumkin. Tasavvuf tarixan faqat diniy-ma'rifiy maktab emas, balki insonni har tomonlama kamolotga yetkazishga qaratilgan g'oyalar tizimi bo'lganligi uchun uning tamoyillari bugungi ta'lim falsafasini qoniqtira oladi. Tasavvufdagi shaxsga yo'naltirilgan yondashuv zamonaviy pedagogikadagi shaxs individualigiga mos tushadi, axloqiy-ma'naviy tarbiya talaba ma'naviy immunitetini shakllantirishni ko'zlaydi. Zamonaviy ta'limdagi tahliliy yondashuv tasavvufdagi "o'zingni izla, o'zing angla" ruhiyatiga mosdir. Zamonaviy ta'lim talab qilayotgan ichki qiziqish va ishtiyoq orqali o'qish tasavvuf ichki motivatsiyani rivojlantirishiga o'xshaydi. Tasavvufda ham irfoniylarni majburlab o'rgatib bo'lmaydi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Tasavvufda shayx nafaqat ilm beruvchi, shuningdek, shogirdni hayot yo'lida, axloq va kamolot sari yo'llovchi yo'lboshchi sifatida tasvirlanadi. Ustoz va shogird o'rtasidagi munosabat-bu oddiy oqituvchi va o'quvchi o'rtasidagi aloqa emas, balki sadoqat va hurmatga asoslangan ijtimoiy qadriyat deb qaraladi. Husayn Voiz Koshifiy "Futuvvatnomai sultoni" asarida ustozni ulug'lab, "Hech bir ish ustozsiz amalga oshmagay va kimki ustozsiz bir ishni qilur ersa, ul ishning asosi mustahkam bo'lmag'ay"-deydi[1]. Markaziy Osiyo tasavvufida ustoz (murshid) va shogird (murid) munosabatlarining metodik asosi chuqur ma'naviy-ma'rifiy tamoyillarga tayangan bo'lib, bu aloqa ruhiy tarbiya, ichki poklanish va Allohga yaqinlashish yo'lida asosiy vosita hisoblangan. Shuningdek, Haqdan uzilmagan holda xalq bilan birlik Qur'on, hadis va shayx tasavvufiy tajribalariga asoslangan. Chunki, murshid ilgari bu yo'ldan o'tgan bo'lib, muridni xatolardan saqlaydi. Ustoz halol, pokiza, mutakabbirlikdan yiroq hayot yo'li bilan shogirdga tirik namunadir. Ruhiy munosabatlar izchilligining muhim vositasidan biri suhbat bo'lib, ma'naviy o'sishning muhim omili hisoblanadi, ustoz va shogird o'rtasida qalbiy bog'liqlikni vujudga keltiradi. Umuman olganda, tasavvufda ustoz va shogird munosabatlarining metodik asosi qalbiy bog'liqlik, ruhiy tarbiya, sadoqat, suhbat va tajriba asosida shakllanadi.

Tarixiy taraqqiyot davomida tasavvufga turli nuqtalardan turib bildirilgan fikrlar mavjud bo'lib, xoh shariat va din barcha faoliatlarning mohiyati va yo'nalishlarini belgilab turgan davr bo'lsin, xoh ateizm kabi ilohiy dunyoqarash butunlay inkor qilingan davr bo'lsin ilohiy ishq

falsafasi qiziqishlardan chetda qolmadi. Buning asosiy sababi ruhiyat bilan bog'liq bo'lib, inson bu mavzuda ancha ojizdir. Zero, Qur'ni Karimning Isro surasi 85-oyatida "Sizdan ruh haqida so'raydilar. Ayting: Ruh Robbimning ishidir. Sizga esa oz ilm berilgandir" deyilgan[2]. Markaziy Osiyo tasavvuf maktablarining o'ziga xosligi ijtimoiy ongi shakllanib borayotgan muridning ruhiy o'zgarishlarini tinimsiz nazorat qilib, Haq yo'lida xalq bilan muloqot shartlariga tayyorlab borishligidir. Shu yo'lda ustozga ham bir nechta talablar qo'yilgan. Xo'ja Ahmad Yassaviyga nisbat beriladigan "Faqirnoma"da bu talablar shunday keltiriladi: "Ey tolib, agar Haqni talab qilib, tobay desang andog' pirga qo'l bergilkim, shariatda orifi billoh (Allohn tanigan kishi) bo'lsa, tariqatda voqifi asror bo'lsa, haqiqatda komilu mukammal bo'lsa, ma'rifatda daryou ummon bo'lsa, andog' pirga qo'l bergilkim, saodat bo'lg'ay"[3]. Bu bilan ma'lum bo'ladi, ustozning vazifasi bilim berish bilan yakunlanmaydi, amaliy tarbiya va namunaviy hayotni ham o'rgatish kerak bo'ladi. Jumladan, "Hikmatlar" asosida yassaviya tariqatining o'ziga xos milliy va diniy qadriyatlarga asoslangan tarbiya usuli ilmiy metodik jihatdan mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir.

Inson mohiyatiga ko'ra tafakkur qiluvchi, ma'naviy-ruhiy kamolot sari intiluvchi mavjudot sifatida tushuniladi. Xo'ja Ahmad Yassaviy kamolot Allohni tanish va unga yaqinlashish bilan sodir bo'lishini aytadi. Bunda Qur'onni asos bilib, forsiy tildagi tasavvuf tajribalaridan foydalangan bo'lsa-da, uning asosiy yutug'i qadimiy turkiy dunyoqarash, turkiy axloq va ishonchdan yiroqlashmaganligidir. Masalan, uning Vatanga bo'lgan muhabbatini tasavvufda yangilik deyish mumkin. Yassaviylik yurt ishq, Vatan himoyasi va ravnaqi uchun kurashga chorlaydigan tariqatdir[4]. Yassaviylik tariqati qadriyatlari hisoblangan to'g'rilik, tavozelik, halollik, Allohga sadoqat kabilar qatoriga vatanparvarlikni ham kiritish mumkin. Bu tariqat solik(shogird)lari uchun belgilangan makon, zamon, ixvon, rabi sulton shartlarining makon qismiga to'g'ri keladi.

Markaziy Osiyo tariqatchiligida ulkan maktab yarata olgan shayxlardan yana biri Najmiddin Kubrodir. Uning o'zi yoshligida juda ko'p shayxlardan ta'lim oladi. Lekin hammasida ham barqaror emas edi. Zohiriy-aqliy va botiniy-vajdiy bilimlarni birdek egallash, ikkinchisi uchun birinchisidan voz kecha olmaslik mavjud edi. Uning tariqat silsilasida Ro'zbehon Misriy, Shayx Ammor Yosir va Ismoil Qasriylar muhim o'rin tutadi[5]. Bu uchchala zotni birlashtirib turuvchi silsilaboshi Shayx Abulnajib Suhravardiyga borib taqaladi. Suhravardiyning so'fiyona qarashlarida javonmardlik nazariyasi ham mavjud bo'lib[6], ijtimoiy adolat, mulkiy munosabatlarda sahovatpeshalik ustunlik qilgan. Demak, silsilada solik (shogird) tarbiya dasturidagi futuvvat Najmiddin Kubroni qoniqtirgan. Shayx Najmiddin Kubro tomonidan bitilgan "Usuli ashara"ning to'rtinchi usuli "Qanoat" deb nomlanadi. Uni Ismoil Haqqi Bursaviy shunday sharhlaydi: "Qanoat yashash uchun zarur bo'lgan ehtiyojlardan tashqari barcha nafsiy orzu va

hayvoniy istaklardan xuddi jonsiz vujuddek yiroqlashuv"[7]. Bunda tabzir va isrofdagi xarjlashdan savobli xarjlashning ustunligi shuki, savobli xarj bu ne'matlardan hosil bo'lgan kuchli quvvatni ne'mat beruvchini ibodatiga sarf etish va har bir a'zoni maxsus bir toatga jalb qilishdir[8].

Shayx Najmiddin Kubroga bag'ishlangan deyarli barcha asarlarda xonaqoh tarbiyasiga shayxning zohiriy bilim(shariat) ko'zi bilan qarashi natijasida ustozdan dakki eganini ko'rishimiz mumkin. Chunki, ustozlari unda botiniy nigoh shakllanishini istashar edi. Zohiriy bilim falsafadagi empirik(tajribaviy) bilishga o'xshaydi. Tasavvufda ibodatni to'g'ri ado etish, shaklni to'g'ri tushunish uchun kerak. Ammo bu-yo'lning boshlanishi xolos. Shogird sifatida ladunniy ilmni Alloh tomonidan shayx qalbiga ilhom qilinishi qiyin kechganini ko'ramiz. Uning asosiy maqsadi botiniy bilim bo'lib, zohiriy bilim bu yo'lda vosita bo'ldi. Shayx o'z shogirdlarini tarbiyalashda bu yo'ldan ko'p foydalandi. Najmiddin Kubro botiniy bilishni shuhud(ichki ko'rish), kashf(ochilish) va zuhd(nafsni tark etish) orqali amalga oshadi deb tushuntiradi.

Markaziy Osiyo turmush tarziga chuqur kirib borgan, xalq qadriyatlaridan kelib chiqqan holda shakllangan, taqvo va tavhidni go'zal axloq normasiga aylantira olgan tariqatlardan yana biri Xoja Bahouddin Naqshband asos solgan "Naqshbandiya" tariqatidir. U xalqning odatiy mehnat faoliyati bilan ruhiy poklanish imkoniyatini berdi, ijtimoiy faol hayot tarzini qullab-quvvatladi. Tasavvufda esa o'zigacha bo'lgan tariqatlarni tahlil etib, xojagon tariqati "chiroq piligini nurafshonroq" qildi. Shuningdek, 22 yil mobaynida Hakim Termiziy asos solgan Hakimiya tariqatida ta'lim olgani[9], undagi zuhd, vara', futuvvat, valoyat, qalb ma'rifati va nafs bilan kurashish g'oyalarini chuqur o'rganganligidan darak beradi. Ammo yoddan chiqarmaslik kerakki, naqshbandiya silsila jihatdan Abduxoliq G'ijduvoni, Yusuf Hamadoni orqali Junayd Bog'dodiy va Boyazid Bistomiya taqaladi. Sukr va sahv tushunchalari Yusuf Hamadoni tomonidan uyg'unlashtirilgan bo'lsa, sunnat asosida hushyor bo'lish xojagondan naqshbandiyaga me'ros bo'lib qoldi. Tariqatda ruhiy ta'limni Bahouddin Naqshband uvaysiylik bilan Abduxoliq G'ijduvoniyaning olgandir. Zero, Hazrati Xo'ja Muhammad Boboning(Samosiy) zikrida anga ishorat etildi. Ammo haqiqat yuzidini ular uvaysiy erdilar[10].

Turli irfoniylarning eng muhim g'oya va an'alarini o'zida mujassamlashtirgan Naqshbandiya tariqatida ustoz va shogird munosabatlari turli uslublarda olib borilgan bo'lsa-da, avvalo, suhbatga katta e'tibor berilgan. Unga ko'ngillarni bog'lovchi rishta sifatida qaralgan. Ushbu tariqatda ustoz faoliyatining murakkabligi tasavvufiy-diniy merosni mahalliy xalq maishiy turmush tarzi bilan uyg'unlashtirib ta'lim berishida edi. Avvalo, ustoz tariqat nazariyasini puxta egallagan bo'lib, uni yetkazishda pedagogik qobiliyatni ishga solishi zarur edi. Agar u nimadan ta'lim berayotganini bilsa, sulukning mujassam timsoliga qiyosan, o'qitishning zohiriy shakllarini mazkur shart-sharoitlarga moslashtiradi. Shu bilan birga, shogirdlarning fe'lu sajiyalarini, toifalarini, yana imkoniyatlarini ham hisobga oladi[11].

Tahlil va natijalar. Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlaridagi ustoz va shogird munosabatlari diniy, axloqiy va falsafiy jihatlardan chuqur ildiz otgan bo'lib, nafaqat ruhiy tarbiya, balki jamiyatda axloqiy qadriyatlarning shakllanishida ham muhim rol o'ynagan. Tasavvuf falsafasida insonning mavjudligi va uning maqsadi- Haq sari yetishishdir. Ustoz va shogird munosabati bu yo'ldagi yo'l boshchi bo'lib, ustoz bu-borliq sirlarini, haqiqatni anglab yetgan, tajriba va ma'naviy tozalikka erishgan shaxs bo'lsa, shogird-bu yo'lga kirgan, ammo hali kamolotga yetmagan, ustozning ruhiy rahnamoligiga muhtoj kishi sifatida qaraladi. Zohiriy va botiniy bilimlarni birlashtirgan ustoz shogirdni tashqi amallardan ichki holat sari yetaklaydi. Bu yerda ustoz va shogird aloqasi faqat didaktik (o'qituvchi-talaba) emas, balki ma'naviy-mistika jarayoni hisoblanadi. Shogird(murid) odobi oddiy ijtimoiy norma emas, ruhiy sayrning falsafiy mohiyati sifatida ko'rsatilib, milliy pedagogikada ko'plab diniy-milliy qadriyatlarni shakllanishiga sabab bo'ldi. Masalan, G'arb olimlari tomonidan ko'plab tanqidlarga sabab bo'layotgan shogird itoati tasavvufda ichki motivlarni butunlay inkor etish degani emas, balki ustoz ko'rsatmalari asosida o'z "men"ini topish bo'lib, sharqona buysunish kategoriyasining bir qismi hisoblanadi. Shu tariqa ustoz ko'z o'ngida yangi pedagogik model shakllanadi. Subyektivlikdan obyektivlikka o'tish, ya'ni shaxsiy istaklardan Alloh irodasiga bo'ysunishga o'tish jarayonida asosiy to'siq-nafsdan qutulish bilan inson mavjudodlar zanjirida o'zining mas'uliyatini his qiladi. Silsilaning ma'naviy evrilishlari jarayonida va tariqatlar o'rtasidagi aloqalar natijasida yuqoridagi qadriyatlar sayqallanib bordi. Shogirdni(yoki shaxsni) tarbiya etishda yassaviylik zikr, xizmat, muridlik maktabini taklif etsa, naqshbandiya esa sukut, ichki nazorat va javonmardlikni yuqori qo'yadi.

Tasavvufiy ta'lim modelida shogirdning kamoloti tashqi nazoratdan ko'ra ichki nazoratni shakllantirishga yo'naltirilgan. Ayniqsa, Naqshbandiya tariqatida ilgari surilgan "xilvat dar anjuman", "nazar bar qadam", "vuqufi qalbiy" kabi tamoyillar shaxsning ichki mas'uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu holat zamonaviy pedagogikadagi metakognitiv yondashuvlar, ya'ni talabaning o'z o'rganish jarayonini anglash, tahlil qilish va boshqarish ko'nikmalariga juda yaqin turadi. Demak, tasavvufdagi ruhiy nazorat mexanizmlari bugungi ta'limda o'zini-o'zi boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali model bo'la oladi.

Yassaviylik tariqatida esa ustoz va shogird munosabatlarining ijtimoiylashuvga yo'naltirilganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Hikmatlarning xalqona, poetik va ramziy tilda bayon etilishi bilimni keng ommaga yetkazishning samarali usuli bo'lgan. Bu holat zamonaviy pedagogikadagi integrativ va fanlararo yondashuvlar, shuningdek, kontekstual ta'lim tamoyillariga mos keladi. Ya'ni bilim hayotdan uzilgan holda emas, balki ijtimoiy muhit, madaniyat va milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda beriladi. Natijada shogird faqat nazariy bilim egasi emas, balki jamiyatda faol, mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanadi.

Najmiddin Kubro ta'limotida zohiriy va botiniy bilimlarning uyg'unligi ustoz-shogird munosabatlarining dialektik xarakterini ochib beradi. Ustozning shogirdni botiniy bilishga yetaklash jarayonida vaqtincha qiyinchiliklar, ruhiy sinovlar va ichki kurashlar muhim tarbiyaviy bosqich sifatida qaraladi. Bu jihat zamonaviy ta'limdagi muammoli ta'lim, refleksiya va tanqidiy fikrlash metodlari bilan o'zaro uyg'unlashadi. Chunki haqiqiy bilim insonda ichki savollar, shubhalar va izlanishlar orqali shakllanadi. Tasavvufda bu jarayon ruhiy yetilish bilan bog'langan bo'lsa, zamonaviy ta'limda intellektual yetilish sifatida talqin etiladi.

Tasavvuf tariqatlaridagi ustoz-shogird modeli avtoritar emas, balki mas'uliyatli iyerarxiyaga asoslangan. Ustoz mutlaq hukmron emas, balki tajribali yo'lbo'shchi, shogird esa so'zsiz itoatkor emas, balki ongli ravishda tanlangan yo'l yo'lovchisidir. Bu jihat G'arb pedagogikasida keng muhokama qilinayotgan "subyekt-subyekt" munosabatlariga yaqinlashadi. Farqi shundaki, tasavvufda bu munosabat ma'naviy-axloqiy poydevor bilan mustahkamlangan bo'lib, shaxs erkinligi nafsiiy istaklar emas, balki oliy maqsadga xizmat qilish bilan o'lchanadi.

Umuman olganda, tasavvufdagi ustoz va shogird munosabatlari modeli shaxsni faqat bilimli emas, balki ma'naviy barkamol, ijtimoiy faol va mas'uliyatli inson sifatida shakllantirishga qaratilgan mukammal pedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bu tizimning asosiy natijasi – ichki uyg'unlikka ega, o'zini anglay oladigan va jamiyat oldidagi burchini his etadigan shaxsni tarbiyalashdir. Aynan shu maqsad esa bugungi zamonaviy ta'lim falsafasining ham ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Xulosa. Markaziy Osiyo tasavvuf maktablaridagi ustoz va shogird munosabatlari nafaqat diniy-amaliy jarayon sifatida, balki chuqur pedagogik va falsafiy tizim sifatida shakllanganligi ko'rib chiqildi. Yassaviy, kubroviy va naqshbandiy tariqatlar doirasida o'rganilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, ustoz shogirdni faqat bilim bilan ta'minlamaydi, balki uning ruhiy, axloqiy va ijtimoiy kamolotini ham nazorat qiladi. Ustoz shaxsining namunaviyligi, sadoqati va botiniy bilimlari shogirdning ichki motivatsiyasini rivojlantirish, ichki nazorat va ma'naviy mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Yassaviylik shogirdni xizmat, zikr va muridlik orqali ijtimoiylashishga yo'naltirsa, kubroviylik zohiriy va botiniy bilimlarni uyg'unlashtirish, ichki ruhiy sinovlar orqali tarbiya berishga e'tibor qaratadi, naqshbandiya esa sukut, ichki nazorat va javonmardlikni rivojlantirish orqali shaxsning o'zini anglashini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ustoz-shogird modeli avtoritar emas, balki mas'uliyatli iyerarxiyaga asoslangan bo'lib, shogirdning ongli ravishda o'z yo'lini tanlashiga imkon yaratadi.

Umuman olganda, ustoz va shogird munosabatlari modeli shaxsni faqat bilimli emas, balki ma'naviy barkamol, ijtimoiy faol va mas'uliyatli inson sifatida shakllantirishga qaratilgan mukammal pedagogik tizim sifatida talqin etiladi. Bu jihat bugungi zamonaviy ta'lim falsafasining

ustuvor yo'nalishlariga to'liq mos keladi va tasavvufiy pedagogik yondashuvning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoni. "O'ZBEKISTON" NMIU. -Toshkent. 2019. 321-bet.
2. Qur'oni Karim. Ma'nolar tarjima va tavsiri muallifi Shayx Abdulaziz Mansur. "Sano-standart", Toshkent. 2021. 290-bet.
3. Islom tasavvuf manbalari. Ilmiy majmua. Tuzuvchi Hamidulla Boltaboyev. "O'qituvchi", Toshkent. 2005. 105-bet.
4. Ibrohim Haqqul. Ahmad Yassaviy. G'ofur G'ulom nashriyoti. Toshkent. 2001. 11-bet.
5. Ahmad Abdullayev. Tasavvuf va uning namoyondalari. Termiz. 2007. 168-bet.
6. Komilov N. Tasavvuf. 2-kitob. "MOVAROUNNAHR"- "O'ZBEKISTON", Toshkent. 2009. 407-bet.
7. Najmiddin Kubro. Usuli ashara. O'n usul va sharhi. Tahrir hay'ati Ibrohim Haqqul, A.Bektosh. "O'qituvchi", Toshkent. 2005. 9-bet.
8. Husayn Voiz Koshifiy. Axloqi Muhsiniy. "O'ZBEKISTON", Toshkent. 2019. 15-bet.
9. Abdulqahhor Shoshiy. Avliyolar kitobi. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matba ijodiy uyi. Toshkent. 2018. 37-bet.
10. Faxruddin Ali Safiy. Rashohatu aynul-hayot. "Abu Ali ibn Sino", Toshkent. 2004. 81-bet.
11. Idris Shoh. Naqshbandiya tariqati. Tarjimon Vahob Ro'zimatov. "O'zbekiston", Toshkent. 1993. 22-bet.